

ART TERAPIYANI DEVIANT XULQ-ATVORLI O'SMIRLARDA QO'LLASH

S.M.Sultanova¹

Ismoilova Zaynab²

Nizomiy nomidagi Milliy pedagogika universiteti

KEYWORDS

Art – terapiya, vizual, psixoterapiya, o'smir, ekzistensial, emotsiya, agressiya, san'at, psixanalitika, integratsiya, deviant xulq – atvor, inqiroz, psixosomatika.

ABSTRACT

Ushbu maqolada art terapiyaning turlari paydo bo'lish sabablari va ular oldini olish orqali o'smirlarda bo'ladigan o'zgarishlarga yordam berish choralari keltirilgan. Ayniqsa deviant xulq atvorli o'smirlarda yuzaga keladigan muammolarga art terapiya orqali qanday yechim topish yo'llarining olimlar tomonidan o'rganilganligi mavjud. Deviant xulq – atvorni o'rganishda uning rivojlanishiga yordam beradigan sabablar va bu holatning oldini olish, bartaraf etish, imkoniyatlarini o'rganish kabi malumotlar yoritilgan.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.15587481**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston yoshlari forumida so'zlagan nutqida "Biz oila, maktabgacha ta'lim, maktab, oliy ta'limni hamda ilmiy - madaniy dargohlarni bo'lg'usi renesansning eng muhim bo'g'inlari deb hisoblaymiz. Shu sababli, ushbu sohalarda tub islohatlarni izchil amalga oshirmoqdamiz. Ishonamanki, mamlakatimiz taraqqiyotining yangi poydevorini yaratishda sizlar sizlar singari fidoyi va vatanparvar yoshlarimiz faol ishtirok etib, munosib xissa qo'shadilar"². Ushbu nutqdan bilishimiz mumkinki, mustaqillikdan hozirgi kungacha ta'lim tizimi ayniqsa maktab ta'lim tizimiga alohida imkoniyatlar berilib kelinmoqda. Shuni aytib o'tishimiz mumkinki, maktab ta'lim muassasasi bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishida alohida o'ringa ega Art – terapiya psixoterapiyaning zamonaviy yo'nalishlaridan biri bo'lib, «san'at orqali davolash» ma'nosini bildiradi. Ushbu atama birinchi bo'lib, 1938-yilda Adrian Xill tomonidan

¹ Nizomiy nomidagi Milliy pedagogika universiteti Pedagogika va psixologiya fakulteti Amaliy psixologiya kafedrasida f.b.f.d (PhD)

² Nizomiy nomidagi Milliy pedagogika universiteti Amaliy psixologiya yo'nalishi 404-guruh talabasi

² O'zbekiston Respublikasi Sh. Mirziyoyevning O'zbekiston yoshlari forumida so'zlagan nutqidan. Xalq so'zi gazetasi. Toshkent 26.12.2020 yil.

ishlatilgan va tez orada keng tarqaldi. Ammo bu atama 40-yillardan beri mavjud bo'lganiga qaramay, uning yagona talqini hali ham mavjud emas. Ko'pincha, art terapiya san'atning vizual doirasi, ya'ni ko'z bilan ko'riladigan narsa deb qaraladi. Ushbu texnikaning samaradorligi shundaki, u hissiyotlar bilan tajriba o'tkazishga, ularni ramziy darajada o'rganishga va ifoda etishga imkoniyat beradi. Art terapiya – bu sizning ongsizligingizga sayohat hisoblanadi. Tushlar kabi u odamga qalbining yashirin burchaklarida yashiringan narsalarni ochib beradi

Asosiy qism : Art – terapiya Freyd va Yungning psixoanalitik g'oyalari kontekstida paydo bo'lgan san'at va ijodga asoslangan psixoterapiya va psixologik tuzatish yo'nalishi hisoblanadi. Art – terapiya ixtisoslashgan va san'at va ijodga asoslangan psixoterapiya shaklidir.

Art terapiyaning quyidagi turlari mavjud : biblioterapiya, musiqa terapiya, drama terapiya, raqs terapiya, qo'g'irchoq terapiyasi, qum terapiyasi, haykal terapiyasi, fototerapiya, o'yin terapiyasi, ertak terapiya (o'qishning terapevtik ta'siri), maska, terapiya, rang terapiyasi, izoterapiya (badiiy vositalar yordamida davolash effektlari) metaforik assotsiativ kartalar yordamida terapiya

Psixologiyaning ushbu sohasi xulq – atvori muommolari bo'lgan o'smirlar bilan tuzatish ishlarining samarali usullaridan biri hisoblanadi. Art – terapiya o'smirlik muommolarini tuzatishning samarali vositasi, shuningdek diagnostika va tahlilning insonparvar usulidir. Devint xulq – atvorning yuzaga kelishi, ayniqsa o'smirlik davrida shaxs qadriyatlarining yuzaga kelishi, kelajakka bo'lgan munosabatni ijobiylashtirish, qiziqishlarni shakllantirish jarayoniga integratsiyalashgan vaqtda seziladi, art terapiya usullari quydagilarga yordam beradi :

shaxslararo va ichki nizolar, inqiroz sharoitlari, ekzistensial va yoshga bog'liq inqirozlar, jarohatlar, yo'qotishlar, stressdan keyingi buzilishlar, nevrotik kasalliklar, psixosomatik kasalliklar, ijodkorlikni rivojlantirish, shaxsiyatning yaxlitligini rivojlantirish, ijodkorlik orqali shaxsiy ma'nolarni ochish, o'z-o'zini tasvirlash va ijobiy o'z-o'zini anglashni shakllantirish, o'z his-tuyg'ularingizni o'rganish va ifoda etish, muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish;

oila a'zolarini hissiy jihatdan yaqinlashtirish ; oila va ishda psixoemotsional stressdan xalos bo'lish ;

ijodiy faoliyatning har xil turlari uchun qobiliyatlarni rivojlantirish ;

ta'lim tizimida psixologik xizmatning zamonaviy tendensiyalari : nazariya va amaliyot.

Turli xil chizmalar, rasmlar, haykallar ustida ishlash agressiyani chiqarish hamda taranglikni kamaytirishning xavfsiz usuli hisoblanadi. Hal qilinmagan ichki nizolar va his – tuyg'ularni ko'pincha vizual obrazlar bilan ifodalash osonroq bo'ladi.

O'smir odatlangan fikrlar va his – tuyg'ular ustida ishlash zarur bo'ladi. Art – terapiya asosan psixolog hamda o'smir o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilashda katta ahamiyat kasb etadi. San'at faoliyatida birgalikda ishtirok etish hamdardlik va o'zaro qabul qilish munosabatlarni o'rnatishga yordam beradi. Deviant xulq – atvorli o'smir yoshdagi bolada ichki nazorat hissini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Turli xil chizmalar, rasmlar yoki haykallar

ustida ishlash ranglar va shakllarni tartibga solishni nazarda tutadi va sezgi va his – tuyg'ularni diqqat markaziga olishni o'rgatadi. San'at qobiliyatlarini rivojlantirish va o'z – o'zini baholashni oshiradi.

Art – terapiyaning tez – tez qo'llanishi natijasida yashirin iste'dodlarni aniqlash va ularni rivojlantirish natijasida qoniqish hissini yuzaga keltiradi. Ko'plab taniqli psixologlarning fikriga ko'ra, o'smirda deviant xulq – atvorning shakllanishiga oiladagi salbiy munosabatlar juda katta ta'sir ko'rsatadi.

Oddiy mashqlar orqali art – terapiya bir vaqtning o'zida insonning ruhiy va jismoniy holatini tashxislaydi va davolaydi (kasalliklarning aksariyati psixosomatik xarakterga ega), shuningdek o'zini ifoda etish va o'z – o'zini aktualizatsiyalashdan (amalga oshirish) ulkan zavq keltiradi.

Natijalar

Bu o'smirlar bilan ishlash turi shaxsning his – tuyg'ulari: uyatchanlik, jimjitlik, kamtarlik, xotirjamlik, tajovuzkorlik, giperaktivlik, o'jarlik bilan bog'liq xususiyatlar bilan bog'liqdir. Barcha art – terapivtik usullar shuni ta'kidlaydiki, inson o'z asarlarining badiiy qiymati haqida o'ylamasdan rasm chizsa, haykal yasasa, she'r yozsa, ertak to'qisa, raqs tushsa, yaratilgan obrazlar uning ichki "Men" ini aks ettiradi. Ijod juda keng faoliyat turini o'z ichiga oladi, shuning uchun art – terapiya doirasida deyarli har bir kishi uchun o'zini bilishi va ifoda etish usulini topishga imkon beradigan yangi yo'nalishlar doimo paydo bo'ladi. Art – terapivtik mashg'ulotlar voyaga yetmagan bolalarga o'z fikrlarini, his – tuyg'ularini, kayfiyatini ijod jarayonida ifoda etishga yordam beradi.

Bolalar va o'smirlarda birovlar va o'z-o'zining hatti-harakatlariga nisbatan tanqidiy ko'z bilan qarash faoliyatining sust rivojlanganligi ularni noqonuniy hatti-harakatlarni baholashda xatoliklarga yo'l qo'yishlikka olib kelganligi kuzatiladi. Ulardagi bu xususiyatlar noqonuniy xatti-harakatlarni birovlarining ko'zi bilan qarash va baholash qobiliyatini susaytiradi. Shuning uchun ular tez-tez jinoyatchilik mazmuniga ega bo'lgan harakatlarning ta'siriga tushib qoladi.

Oilalardagi ota yoki ona ichuvchi yoki ma'naviy axloqsizlik bilan ajralib turadi. Bunda nazarimizda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir qilinayotgan jinoyatchilikka qarshi kurash hamda uning oldini olish birinchi navbatda oila ahloqini qadriyatlarimizga moslashtirishdan boshlashga to'g'ri keladi.

Shu o'rinda turli xil huquqshunos olimlarning bu boradagi turlicha qarashlari mavjud bo'lib, bularning barchasi voyaga yetmaganlar tomonidan ahloqsizlik xatti-harakatlarini sodir qilishga oilani roli muhimligi haqida so'z yuritiladi. Jumladan, V.Ya.Rubalskaya tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra, 47 % voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi ota onaning salbiy ta'siri yoki befarqligining, 14,8 % oilada hamjihatlik yo'qligining, 38,3% ota yoki onani yo'qligining, 23,5 % kattalarning loqaydligi tufayli jinoyat sodir etishning asosini tashkil etadi.³

³ Abdurasulova. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi va uning oldini olish muammolari. qonun himoyasida. Toshkent. №1. 2001. - 23. B.

Shuningdek, bolalar va o'smirlarning yosh davri xususiyatlariga xos bo'lgan qo'zg'aluvchanlik, impulsivlik holatlari, affektiv kechinmalar bilan bog'liq bo'lgan turkum affektiv qo'zg'alishlarni keltirib chiqarganligi kuzatiladi. Bunday holatlar mazmunida muayyan shart-sharoitlar va turli xil voqea-hodisalarga nisbatan qisqa muddatli va kuchli namoyon bo'luvchi emotsiyalar sifatidagi qo'zg'atuvchilar yotganligining guvohi bo'lamiz.

Mashhur psixiatr A.E. Lichko o'smirlik davrini o'rganishda o'smirlarning sezgirligiga, ularning tashqi ma'lumotlariga, ko'nikmalariga va boshqalarga nisbatan sezgirligiga alohida e'tibor berdi. O'zlarining zaifligiga qaramay, o'zlari ko'pincha boshqalarga nisbatan shafqatsizlik va takabburlik ko'rsatishi mumkin. Lichkoning so'zlariga ko'ra, bu yoshda sentimentallik qo'pollik, uyatchanlik bilan g'ayrioddiy mustaqillik bilan qabul qilish istagi bilan namoyon bo'lishi mumkin. O'smirning ijtimoiy hodisalarni bunday qarama-qarshi idrok etishi o'zini kattalar dunyosi yoki bolalik dunyosi bilan bog'lashning noaniqligi bilan bog'liq. O'smirlik inqirozi davrida o'smir o'zining tashqi ko'rinishi, boshqalar uni qanday ko'rishi, ayniqsa tengdoshlari haqida ko'p o'ylaydi.

O'smir do'stlikka katta sadoqat ko'rsatishga intiladi, chunki u uchun ko'pincha tengdoshlari orasidan o'ziga mos guruhini yaratish juda muhimdir. Biroq, bu yoshda, do'stlar yoki qarama-qarshi jins vakillari bilan nizolar yuzaga kelgan taqdirda, do'stona yoki romantik munosabatlardagi keskin tanaffus juda mos keladi. Ko'pincha, o'smirlik kategoriyali, tantanali, qo'pol davr sifatida tavsiflanadi, chunki tengdoshlaridan farqli o'laroq, kattalar juda kam vakolat beradi.

V.Yustitskiyning fikricha, o'z-o'zini hurmat qilish, o'ziga bo'lgan ishonch va imkoniyatlarni kam baholamaslik ko'pincha o'smirning o'z majburiyatlarini o'zi tasavvur qilganidan ham yomonroq bajarishiga yoki umuman uddalay olmasligiga olib keladi. Agar shunday paytda o'smir kattalar tomonidan qo'llab-quvvatlanmasa va aksincha, haddan tashqari tanqidga duchor bo'lsa, unda o'zidan pastlik hissi paydo bo'ladi, bu esa yanada jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Xulosa: Art – terapiyadan foydalanib so'zlashda qiyinchiliklarga duch keladigan bu o'quvchilar uchun noverbal muloqot imkoniyati muhimdir. Ichidagi his – tuyg'u, agressiya, stress, emotsiyalarni chiqarolmagan bola rasmlar orqali, sa'nat orqali, art – terapiyaning turli yo'nalishlari orqali chiqarib yuboradi.

O'smirlik davrida yuzaga keladigan deviant xulq-atvor (agressiya, qochish, bo'ysunmaslik va boshqalar) aksariyat hollarda ichki ziddiyatlar, psixologik himoya mexanizmlari yoki ijtimoiy-emotsional muammolarning natijasidir. Bunday holatda psixologik treninglar va terapiya usullari o'smirlarga o'z xatti-harakatlarini tushunish, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish va salbiy emotsiyalarni boshqarish uchun samarali vosita bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Александр Копытин, Джордж Платтс. *Руководство по фототерапии*. Москва: Когито Центр, 2009.
2. Арт-терапия. Эл. ресурс. <http://psixologiya.org/psixoterapiya/strategii-i-metody/1698-artterapiya.html>
3. Аркова, Ирина Владимировна. Арт-терапия как средство педагогической

коррекции девиантного поведения учащихся 5-7 классов учреждений образования в исправительных колониях. Diss. 2019

4. Коноплева Ю. П., Королькова Л. В. Арт-терапия в работе с подростками девиантного поведения. –2022.
5. Лекция Екатерины Воскресенской и Евгении Ефимушкиной в библиотеке им. Н. А. Некрасова 2018-yil 24-noyabr.
6. Osipova A. A. Obshaya psixokorreksiya : uchebn. pos. dlya stud. vuzov. — M. TTS Sfera, 2004
7. Rudestam K. Gruppovaya psixoterapiya. — SPb.: Piter, 2000
8. O'zbekiston Respublikasi Sh. Mirziyoyevning O'zbekiston yoshlari forumida so'zlagan nutqidan. Xalq so'zi gazetasi. Toshkent 26.12.2020 yil.